



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

**BOSHLANG'ICH TA'LIMGA  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI  
TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY  
TENDENSIYALARI VA  
RIVOJLANISH OMILLARI  
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

**MATERIALLARI**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ**

**БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМГА РАҶАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТЬИҚ  
ЭТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ  
ОМИЛЛАРИ**

**ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021 йил, 1 -2 апрель**

**БУХОРО - 2021**

1. “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ - 4306 Qarori. -Toshkent: “Xalq so‘zi”, 2020-yil, 4-may.
2. Bikbayeva.N.U. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. -Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.
3. Axmedov M., Abdurahmonova N., Jumayev M. Matematika (1-sinf darsligi). –T.: “Turon-iqbol”, 2019. -160 bet.
4. Burxonov S., Xudoyorov O‘., Norqulova Q., Ruzikulova N., Goibova L. Matematika (3-sinf darsligi). –T.: “Sharq”, 2019. -210 bet.

## **BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

*M. R. Hamroyeva, BuxDU o‘qituvchisi  
F.N. G‘afurova, BuxDU talabasi*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llaniluvchi metodlarning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Bunda fikrlar darslikdagi mashqlar asosida izohlangan.

*Kalit so‘zlar:* ta’lim, metod, darslik, “Zig-zag”, til, munozara, “Beshinchisi ortiqcha”, mashq.

*Аннотация.* В этой статье обсуждается важность методов, используемых в начальной школе. Идеи объясняются на основе упражнений в учебнике.

*Ключевые слова:* обучение, метод, учебник, “Зиг заг”, язык, дискуссия, “Пятый плюс”, упражнение.

*Annotation:* This article discusses the importance of the methods used in primary school. The ideas are explained based on the exercises in the textbook.

*Keywords:* education, method, textbook, “Zig-zag”, language, discussion, “Fifth plus”, exercise.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach, mamlakat taraqqiyotida O‘zbekistonni buyuk davlatga aylantirish, har tomonlama yuksaltirish, undagi ta’lim tizimini rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Ta’lim tizimini ma’lum bir reja asosida rivojlantirish maqsadida dastlab 1992-yil 2-iyulda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan. 1997-yilda esa yangi tahrirdan chiqarilgan. Keyinchalik, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim sohasida hozirgi davrdagi amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z aksini topgan [2]. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishiga erishish, ularning o‘z qobiliyati va iste’dodini ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat”, – degan fikrlari o‘rinlidir [1].

O‘zbekistonning kelajagi har tomonlama yuksak salohiyatlari yoshlarni tarbiyalashga bog‘liq. Salohiyatlari yoshlarni tarbiyalashda esa ta’lim muassasalarini, qiziqarli dars mashg‘ulotlari, o‘qituvchining ilmiy darajasi katta ahamiyatga ega. Ta’lim sohasiga berilayotgan katta e’tibor tufayli bu sohada turlicha islohotlar olib borilmoqda. Bolalarning fikrlashi, dunyoqarashini kengaytirish maqsadida dars va mashg‘ulotlarda bir qancha o‘yinlardan, metodlardan foydalanish mumkin. Fikrlashning inson hayotidagi ahamiyatini inobatga olgan holda zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari, ta’limning barcha bosqichlarida o‘quvchilarini tayyorlashga va o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqishga qaratilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarga turli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bugungi Davlat talablari har bir o‘qituvchi oldiga katta

mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. O'qituvchilar har bir o'tadigan darsiga ijodiy yondashishi, darsni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qurishi va har bir daqiqadan unumli foydalanishi zarur.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lism jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Natijada o'quv faoliyat jarayoni ham yangilikka muhtoj bo'lib qoldi. Bu holatdan chiqish uchun darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, o'qituvchining bu faoliyatga tayyorlik darajasini oshirish zamonning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Boshlang'ich ta'lism o'quv jarayonida, jumladan, taraqqiy lashgan, innovatsion talablarga javob bera oladigan darslarda o'quvchilarni amaliyot orqali nazariy fikrlash, idrok etish jarayoniga tayyorlash mumkin. Bunday o'quv tizimini o'quvchiga tegishli qiziqish uyg'otmasdan amalga oshirish mumkin emas, albatta. Shuning uchun bosh vazifalardan biri sinfda innovatsiyalashgan o'quv jarayonini amalga oshirish uchun har bir o'quvchida shu o'quv tizimiga qiziqish uyg'otish hisoblanadi. Agar o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajarishdan maqsad nimaligini bilmasa, o'z imkoniyatlarini to'la namoyon qila olmaydi. Takomillashgan o'quv tizimida o'quvchi istaklari bilan tavsiya etilgan mavzu mos kelmasligi katta qiyinchiliklar tug'dirdi. Ba'zida o'qituvchilar o'tayotgan darslarida dastur mavzularini o'quvchida boshlang'ich istak asoslariiga mos ravishda amalga oshirishda qiynaladilar. Bunda innovatsion texnologiyalar ular uchun zaruriy ko'mak bo'lib xizmat qiladi.

O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakam ehtiros bo'ladi.

Boshlang'ich sinfda ta'lism jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lism jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi [5]. Innovatsion texnologiyalar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi [3]. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Har bir bola muktabga ilk qadam qo'ygan kunidan boshlab birinchi ustozini o'ziga ona deb bilib, uning so'zlarini tinglab, unga amal qiladi. Ustozining so'zidan chiqmaydi va uni o'ziga qonun deb biladi. Shu sababli o'qituvchi bolalarni ko'ngliga qarashi, unga to'g'ri ta'lism-tarbiya bera olishi lozim. O'quvchini darsga qiziqtirish maqsadida bugungi kunda an'anaga aylangan interfaol metodlardan foylanishi mumkin.

Interfaol metodlar – ta'lism jarayonida o'qitishning zamonaviy usuli. Interfaol metod har qanday muammoni birgalikda hal qilishga, jamlikda ishlashga, o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi va mustaqil hayotga tayyorlaydi [3]. Bunday metodlardan

foydalanganda o‘qituvchi o‘quvchini darsda faol ishtirok etishga chorlashi, diqqatini qarata olishi, uni rag‘batlantirishi va nutqini o‘stira olishi muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bir kunlik o‘qish, matematika va ona tili darsida quyidagi metodlardan foydalanishi mumkin:

1. “Beshinchisi (oltinchisi, yettingchisi...) ortiqcha” metodi [3].

Ushbu metod orqali o‘quvchilarning diqqatini, xotirasini va ziyorakligini sinash mumkin. Bu metoddan foydalanishda bir nechta bosqichlarni ko‘rib o‘tamiz:

-dars mavzusiga oid bir qancha tayanch tushunchalar yoki atamalarni yozamiz;

-bu so‘zlar orasiga mavzuga oid bo‘lmagan bitta so‘zni yozamiz;

-o‘quvchilar mavzuga aloqador bo‘lmagan so‘zni topishi va qatordan chiqarishi kerak.

Bu metod bo‘yicha darsliklardan misollar keltiramiz.

1-sinf o‘qish kitobi “Navro‘z” she’rini shu metod bo‘yicha tahlil qilsak [6].

Navro‘z, sumalak, sayilgoh, chana, quyosh...

Demak, ushbu qatorda bahor fasliga oid so‘zlar qatoridagi 4-so‘z chana qishga aloqador so‘z bo‘lib, shu so‘z ortiqcha.

2-sinf Matematika kitobi “Doira, aylana markazi va radiusi” mavzusidagi asosiy tushunchalardan misol olsak [8]:

Doira, aylana, uchburchak, radius, markaz...

Bu qatorda aylana va doiraga aloqador so‘zlar qatorida uchburchak so‘zi ortiqcha.

2-sinf o‘qish kitobi “Boburning fazilatlari” mavzusiga aloqador so‘zlarni olamiz [7]:

Boburnoma, Agra, g‘avvos, qorbobo, notiq...

“Boburning fazilatlari” mavzusiga aloqador so‘zlar qatorida qorbobo so‘zi ortiqcha.

Bu metodni qo‘llashdan maqsad - o‘tilayotgan mavzu yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olish.

2. “Munozara” metodi

Ushbu metoddan foydalanishda o‘rtaga bir muhim masala tashlanadi, va babs yuritib, masalaning yechimi topiladi. Har bir o‘quvchi o‘rtaga tashlangan masala haqida bilganlarini so‘zlab, o‘z fikrlarini bayon qiladilar.

4-sinf Matematika kitobida “Kalendar” mavzusiga doir 3-masala [11]. Masalada kalendar yordamida har bir fasl nechta sutkadan iboratligini toping, fasllardagi sutkalar sonini qo‘sish orqali bir yil nech kunligini toping degan shart qo‘yilgan. O‘quvchilarga savollar beriladi:

Bir fasl necha oy?, Bir oyda necha kun bor?, Bir faslda nechta sutka bor?, Bir yilda nechta fasl bor?, 4ta fasldagi sutkalar sonini qo‘sksak, necha sutka bo‘ladi? kabi.

2-sinf o‘qish kitobida “Zilol suv” mavzusi bo‘yicha o‘rtaga savol tashlanadi [7]:

- O‘quvchilar, suvgaga axlat tashlash mumkin emas?. Nega ota -bobolarimiz qadim zamondan suvni asrab-avaylab kelishgan?

Shu kabi savollar berilib, o‘quvchilarning shaxsiy fikri so‘raladi va yakuniy eng to‘g‘ri xulosa qilinadi.

3-sinf Matematika kitobida “Burchak simmetriyası” mavzusiga oid bir nechta savollar o‘rtaga tashlanadi [10]:

- Simmetriya nima?, Simmetriya o‘qi qanday bo‘ladi? Burchak simmetriyasichi?,

Shunga o‘xhash savollar berilgach, o‘quvchilarning fikrlari orqali ularda simmetriya haqida qanday tasavvurlar shakllanganini bilib olishimiz mumkin. O‘quvchilarning fikri tinglanib, yakuniy xulosa chiqarib, o‘quvchilarga eng to‘g‘ri javobni aytib berishimiz zarur.

### 3. “Zig-zag” metodi

Ushbu metoddan foydalanish o‘quvchilarning xotirasini kuchaytirib, diqqat-e’tiborining ortishiga yordam beradi. Bu metoddan foydalanishda o‘quvchilar ketma-ketlikda turib bittadan so‘z aytishadi, keyingi o‘quvchi esa avval o‘zidan oldingi o‘quvchi aytgan so‘zni aytib, keyin o‘zi yangi bir so‘z aytadi. Qolganlar ham shu tarzda davom etadi. So‘zlar o‘rnini o‘zgartirgan o‘quvchi o‘rniga o‘tiradi. Oxirida qolgan o‘quvchi eng diqqatli o‘quvchi boladi.

4-sinf Matematika kitobida “Ko‘pyoq” mavzusi doirasida ushbu metodni qo‘llaymiz:

Ko‘pyoq, qirra, uch, yonlari, sirt, hajm... shu ketma-ketlikda davom ettirish mumkin.

2-sinf o‘qish kitobidagi “Qushlar, hayvonlar - bizning do‘stimiz” bo‘limi yuzasidan qush va hayvon nomlarini aytish orqali bu metoddan foydalansak bo‘ladi [7].

Bulbul, chumchuq, tuya, fil, olmaxon, ayiq, yo‘lbars, echki, bo‘ri, tovuq,...

3-sinf o‘quvchilari bilan “Gap” bo‘limi yuzasidan bu metodni qo‘llash mumkin [9].

O‘quvchilar quyidagi asosiy tushunchalarni ishlatalishlari mumkin: gap, darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, his-hayajon gap, gap bo‘laklar, bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar...

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarda interfaol ta’lim metodlar o‘quvchini ijodiy izlanishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rgangan bilimlarini kelgusi hayotda qo‘llay olishga va qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2017. -488 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: “Sharq”, 1998.
3. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). - Qarshi: “Nasaf”, 2011.
4. Alimov N. Maktabgacha yoshdagи bolalarni matematik ta’limga tayyorlash\ Maktabgacha ta’lim. - T., 2005.
5. Axmedova M. Maktabgacha yoshdagи bolalarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilish\ Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi II xalqaro anjuman. - Toshkent, 2008
6. Shodmonov E. va boshqalar. 1-sinf o‘qish darsligi. –Toshkent, 2019. -127 bet. 43-bet.
7. G‘afforova T. va boshqalar. 2-sinf o‘qish darsligi. –Toshkent: “Sharq”, 2018. -176b. 106-107-betlar. 153-156-betlar. 125-132- betlar.
8. Abdurahmonova N. va boshqalar. 2-sinf matematika darsligi. –Toshkent: “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2018. -206 b. 187-189-betlar.
9. Fuzailov S. va boshqalar. 3-sinf ona tili darsligi. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019. -150 b. 28-53- betlar.
10. Norqulova Q. va boshqalar. 3-sinf matematika darsligi. –Toshkent: “Sharq”, 2019. -209 b. 85-87-betlar. 166-bet.

foydalanish	
<i>Saidova M. J.</i> Ta'lilda multimedialardan foydalanish va uning didaktik imkoniyatlari	<b>189</b>
<i>Saidova G. E.</i> Boshlang'ich sinflarda geometrik materiallar ustida ishlash metodikasi	<b>193</b>
<i>Saidova M. J.</i> Masofaviy ta'lilda o'qitish imkoniyatlari va usullari	<b>195</b>
<i>Saidova G. E., Qoryog'diyeva A. Sh.</i> Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy masalalar yechishni o'rgatish	<b>199</b>
<i>Olloqova O', Murodova G.</i> Matematika darslarida geometrik figuralarni o'rgatishda interfaol metod va didaktik o'yinlardan foydalanish	<b>201</b>
<i>Hamroyeva M. R., G'afurova F.N.</i> Boshlang'ich sinf darslarida interfaol metodlardan foydalanish	<b>204</b>
<i>G. E., Sanoqulova S. F.</i> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uzunlik haqida tasavvurlarni shakllanritish, uzunliklarni o'lchash malakalarini hosil qilish	<b>208</b>
<i>Ozodova M. H.</i> Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarni egallash bosqichlari	<b>211</b>
<i>Qosimov F.M.</i> Ijodiy topshiriqlar va ular tizimiga qo'yiladigan talablar	<b>214</b>
<i>Adizova N., Husenova D.</i> 1- sinfda unli tovushlar talaffuzi ustida ishlash	<b>217</b>
<i>Tog'ayeva U.Sh.</i> Loyihaviy ta'lim vositasida "ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirish	<b>221</b>
<i>Hamroyeva M. R., Subhonova O. A.</i> Ona tili va o'qish darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirishga oid metodik ko'rsatmalar	<b>223</b>
<b>Улугмурод Амонов</b> «Диван лугат-ат-турк» нинг илк тадқиқотчиси	<b>225</b>
<i>Axmadov O. Sh.</i> Бухоро амирлигига анъанавий бошланғич таълим-тарбия тизими ва унинг инқиrozи	<b>228</b>
<i>Sidiqova D. S., Jabborova G.A.</i> Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda interfaol metodlaridan foydalanish	<b>230</b>
<i>Tog'ayeva U.Sh. Xodjayeva M.Sh.</i> Boshlang'ich sinf ona tili darslarida fanlararo aloqadorlik o'rnatish	<b>233</b>
<i>Qurbanova Sh. N., Razzoqova N.</i> Pedagogik texnologiya -ta'lim-tarbiya jarayonining yaxlit tizimi sifatida	<b>234</b>
<i>Yusufzoda Sh. Y., Safarova D. F.</i> Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilar mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyatni	<b>237</b>
<i>Yusufzoda Sh. Y., Egamqulova F T.</i> Grafik modellardan foydalanish usullari orqali masala yechish metodikasi	<b>240</b>
<i>Yusufzoda Sh. Y., Narzullayeva Z.</i> Boshlang'ich sinf matematika darslarida harakatga doir masalalar yechishga o'rgatish metodikasi	<b>243</b>
<i>Narzillayeva M. Sh.</i> Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda lingvodidaktikaning o'rnini	<b>245</b>
<i>Rajabova N. K., Kamolova M. I.</i> Boshlang'ich sinflarda masalalar yechishning metodik asoslari	<b>249</b>
<i>Rajabova N.K.</i> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fazoviy tasavvurlarini shakllantirishning metodik asoslari	<b>251</b>
<i>Ismatov S. R., Shukrullayeva Sh.Sh.</i> Savod o'rgatish davri yozuv darslarini o'rgatish usullari	<b>252</b>
<i>Olloqova O'M., Zaripova M.O'</i> . Hikoya o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish	<b>255</b>
<b>Хафизов Ш.</b> Бошланғич синфларда жисмоний тарбия дарснинг тузилиши ва уни ўтказиш методикаси	<b>258</b>
<i>Adizova N.B., Ibrohimova F. A.</i> Avloniy she'rlarining boshlang'ich sinflarda o'rganilishi	<b>261</b>
<i>Sidiqova D. Sh.</i> "Matematika o'qitish metodikasi" fanini o'qitishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi	<b>264</b>
<b>Кўлдошев Р. А.</b> Чапақай ўқувчиларида ёзув кўнижмаларини шакллантириш	<b>266</b>
<i>Safarova N. O., Jumayeva H. G.</i> Savod o'rgatish davrida boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozuv malakalarini shakllantirish	<b>270</b>
<i>Raximova N.A., Rustamova D.</i> Boshlang'ich sinf tarbiya tizimida innovatsiyalar	<b>274</b>
<i>Mirzayeva D. Q.</i> O'quvchilar nutqini o'stirishda lug'at ustida ishslash	<b>277</b>